**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI**
**OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

**TOSHKENT MOLIYA INSTITUTI**

**O'quv-uslubiy boshqarma tomonidan ro'yxatga olindi**
№ 20140206
2014 yil 20 iyun

**Institut Kengashining №1 – sonli qarori bilan TASDIQLANGAN**
(2014 yil 23 avgust)

# TIJORAT BANKLARI FAOLIYATINI TARTIBGA SOLISH VA NAZORAT QILISH

**ISHCHI O'QUV DASTURI**

**Oliy ta'limning**

| | |
|---|---|
| **Bilim sohasi:** | 200000 – Ijtimoiy soha, iqtisod va huquq |
| **Ta'lim sohasi:** | 230000 – Iqtisod |
| **Magistratura mutaxassisligi:** | 5A230702-Bank hisobi va audit |

**Toshkent-2014**

Fanning ish ri o'quv va ishchi o'quv reja hamda o'quv dasturiga muvofiq

**Tuzuvchilar:** **Qoraliev T.M.** - TMI «Bank hisobi va audit» kafedrasi mudiri, i.f.n., prof.
**Sayfiddinov I.F.** -TMI «Bank hisobi va audit» kafedrasi dotsenti, i.f.n.

**Taqrizchilar:** **Karimov N.G'.** –TDIU, "Bank ishi va korporativ moliya" kafedrasi mudiri, prof., i.f.d. (turdosh OTMdan)
**Marpatov M.D.** – O'zR Markaziy banki "Buxgalteriya hisobi, hisoboti va davlat byudjeti kassa ijrosi" departamenti direktori o'rinbosari (kadrlar buyurtmachisi)

Fanning ishchi o'quv dasturi kafedraning 2014 yil 22-maydagi 18-sonli yig'ilishi muhokamasidan o'tkazilgan va fakultet Kengashida ko'rib chiqish uchun tavsiya etilgan.

**Kafedra mudiri** **N.N. Oblomurodov**

Fanning ishchi o'quv dasturi Kredit iqtisod fakulteti Kengashida muhokamadan o'tkazilgan va tavsiya etilgan (2014 yil 06 iyundagi 10-sonli qarori).

**Fakultet dekani** **dots. O. Sattarov**

**Kelishildi:**
**O'quv ishlari bo'yicha prorektor** **prof. A.Karimov**

# KIRISH

## 1.1. Fanning maqsadi va vazifalari

Tijorat banklari faoliyatini tartibga solish va nazorat qilish fanining asosiy maqsadi – talabalarda xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning moliyaviy-xo'jalik faoliyatini auditorlik tekshiruvidan o'tkazish, moliyaviy hisobot bo'yicha auditorlik xulosasi hamda hisobotini rasmiylashtirish, auditning professional xizmatlarini ko'rsatishni tashkil qilish bo'yicha nazariy- amaliy bilimlarni shakllantirishdan iborat.

Fanning vazifasi – tijorat banklari faoliyatini tartibga solish va nazorat qilish usullari, tijorat banklari faoliyatini nazorat qilish bo'yicha xalqaro Bazel standarti, tijorat banklari faoliyati ustidan amalga oshiriladigan distantsion nazorat, tijorat banklari faoliyatini inspektsion tekshirish, bank nazorati bo'yicha Bazel-II printsiplari va talablari, Bazel-II ni O'zbekiston bank amaliyotiga qo'llash, tijorat banklari faoliyatini kredit reytingi asosida baholash kabi masalalarini nazariy-amaliy bilimlarni o'rgatishdan iborat.

Har bir mavzu yakunida ta'lim texnologiyalari keltirilgan va ularni qo'llash yuzasidan aniq tavsiyalar mazkur fandan ishlab chiqilgan o'quv-uslubiy majmua(O'UM)da bayon etilgan.

## 1.2. Fanni o'zlashtirgan talabaning malakaviy darajasi:

- tijorat banklari faoliyatini tartibga solish va nazorat qilish usullari haqidagi;
- tijorat banklari faoliyatini nazorat qilish bo'yicha xalqaro Bazel standarti haqidagi;
- tijorat banklari faoliyati ustidan amalga oshiriladigan distantsion nazorat qilish haqidagi;

bank nazorati bo'yicha Bazel-II printsiplari, talablari. Bazel-II ni O'zbekiston bank amaliyotiga qo'llash haqidagi;

- xalqaro amaliyoti bank faoliyatini boshqarish va nazorat qilish haqidagi tasavvur va malakaga ega bo'ladi.

## 1.3. Fanning o'quv rejasidagi fanlar bilan bog'liqligi

Mazkur fanni o'rganish uchun magistr-iqtisodchi davlat ta'lim standartlarida ko'zda tutilgan iqtisodiy fanlar bilan bevosita aloqada bo'ladi.

## 1.4. Fanni o'qitishda qo'llaniladigan yangi pedagogik texno-logiyalar va ularning mazmun-mohiyati

«Tijorat banklari faoliyatini tartibga solish va nazorat qilish» fanining ***ma'ruza mashg'ulotlarida*** ma'lumotlarni ko'rgazmali taqdim etish usullari va vositalari:

*insert jadvali*:

– mustaqil o’qish, ma’ruza tinglash jarayonida olinadigan ma’lumotlarni yaxlit bir tizimga keltirishga imkoniyat yaratadi.

– oldindan olingan ma’lumotni yangisi bilan o’zaro bog’lash qobiliyatini shakllantirishga imkon beradi.

*Klaster (Klaster - tutam, bog’lash):*

Ma’lumot xaritasini tuzish va vositasi-barcha fikr konstitutsiyasini fokuslash va aniqlash uchun asosiy omil atrofida g’oyalarni yig’ish.

*Toifali jadval:*

Toifa - mavjud holat va munosabatlarni aks ettiradigan belgi (umumiy).

– ajratilgan belgilarga ko’ra olingan ma’lumotlarni birlashtirishni ta’minlaydi;

– tizimli mushohada qilish, ma’lumotlarni tarkiblashtirish va tizimlashtirish ko’nikmasini rivojlantiradi.

*Kontseptual jadval:*

O’rganilayotgan xodisa tushuncha, qarash, mavzu va shu kabilarni ikki va undan ortiq jihat bo’yicha taqqoslash imkonini beradi. Tizimli mushohada qilish, ma’lumotlarni tarkiblashtirish va tizimlashtirish ko’nikmasini rivojlantiradi.

*BBB jadvali:*

Bilaman, Bilishni xoxlayman, Bildim

– matn (mavzu, bo’lim) bo’yicha tadqiqot ishlari olib borish imkonini beradi;

– tizimli mulohaza kilish, tarkibga ajratish ko’nikmalarini beradi.

*T –jadval:*

Bita kontseptsiya (ma’lumot)ning jihati o’zaro solishtirish (ha/yuk, ha/qarshi). Tanqidiy mushohada rivojlantiradi.

*BLOT-tahlil jadvali:*

Tijorat banklari balansini tahlil qilish va baholash vositasi. Bu kabi tahlilni banklar bo’yicha umumiy tarzda yoki alohida muammo yoki loyiha bo’yicha ham amalga oshirish mumkin. Tizimli mushohada kilish, taqqoslash, solishtirish, taxlil va sintezni amalga oshirish ko’nikmalarini rivojlantiradi.

*Loyihalash metodi:*

Kelajakda amalga oshiriladigan ishlarni rejalashtirish bo’lib, loyiha, ma’lum bir hisob-kitob, chizma va boshqalarga asoslangan holda tavsiflash, bayon qilish shaklida mujassamlashgan g’oya, fikr.

«Tijorat banklari faoliyatini tartibga solish va nazorat qilish» fanining **amaliyot mashg’ulotlarida** muammoni jamoali tarzda hal etishning usullari va vositalari:

*Aqliy hujum:*

Bu uslubda qo’yilgan savol, maummo, masalani butun guruh bilan birgalikda muhokama kilinadi. U talabalarni o’quv jarayonida mashg’ulotlar faol qatnashishlarini topish va bayon qilish chog’ida boshqalarni ham fikrini jalb qilish, o’z fikrlarini aytishga yo’naltiruvchi metoddir.

*Bahs:*

O’z fikrini ifoda etishni xoxlovchilar orasida biron bir munozarali masalani muhokama kilish, xaqiqatni aniqlash va to’g’ri qarorni qabul qilish.

*Muzokaralar:*

Eshitish aniq tashkil etilgan ikki tomon fikrlari almashinuvi.

*Pinbord texnikasi:*

Muammoni hal etish bo'yicha g'oyalarni tizimlashtirish va guruhlashtirish va yagona nuqtai nazarni ishlab chiqish imkonini beradi.

*Delfi texnikasi:*

Muammoni hal etishning jamoali baholash va tanlash imkonini beradi.

***6-6** texnikasi:*

Qo'yilgan muammoni xal etish buyicha jamoa tomonidan ifodalangan variantlardan eng yaxshisi baholanadi va tanlanadi, keyin quyidagi xarakatlar algoritmga muvofiq ma'lum belgilar bo'yicha guruhlanadi.

*Keys stadi.:*

Talabalarni qaror qabul qilishga o'rgatishda muammoli vaziyat hosil kilib, uni echishni o'rganish metodi.

Shuningdek «Tijorat banklari faoliyatini tartibga solish va nazorat qilish» fanining amaliyot mashg'ulotlarida kompyuter dasturlaridan (Banklarning buxgalteriya balansi, Micrasoft Excel, Micrasoft PowerPoint, Web Trust, SYS Trust), slaydlardan, multimediata'lim vositalaridan, INTERNET sahifalari va tizimlaridan foydalanish tavsiya etiladi.

Talabalarga ushbu fanni o'zlashtirishda mavjud o'quv adabiyotlaridan, elektron darslik, teslar majmuasi va boshqa manbalardan foydalanish tavsiya etiladi.

**1.1. 5A230701-Bank ishi (faoliyat turlari bo'yicha) va 5A230702 – «Bank hisobi va audit» magistratura ta'lim yo'nalishlarida "Tijorat banklari faoliyatini tartibga solish va nazorat qilish" fani mavzulari va ular bo'yicha mashg'ulot turlariga ajratilgan yuklama hajmining taqsimoti**

| t/r | Fan mavzularining nomi | Jami soatlar | shu jumladan: | | |
|---|---|---|---|---|---|
| | | | ma'ruza | amaliy mashg'ulot | mustaqil ta'lim |
| | **2- semestr** | | | | |
| 1. | Fanning predmeti va vazifalari | 8 | 4 | 4 | 4 |
| 2. | Tijorat banklari faoliyatini tartibga solish va nazorat qilish usullari | 8 | 4 | 4 | 4 |
| 3. | Tijorat banklari faoliyatini nazorat qilish bo'yicha xalqaro Bazel standarti | 12 | 6 | 6 | 6 |
| 4. | Tijorat banklari faoliyati ustidan amalga oshiriladigan distantsion nazorat | 12 | 6 | 6 | 6 |
| 5. | Tijorat banklari faoliyatini inspektsion tekshirish | 8 | 4 | 4 | 4 |
| 6. | Bank nazorati bo'yicha Bazel-II printsiplari, talablari. Bazel-II ni O'zbekiston bank amaliyotiga qo'llash | 8 | 4 | 4 | 4 |
| 7. | Xalqaro amaliyotida bank faoliyatini boshqarish va nazorat qilish | 8 | 4 | 4 | 4 |
| 8. | Tijorat banklari faoliyatini kredit reytingi asosida baholash | 8 | 4 | 4 | 4 |
| 9. | Doimiy bank nazoratini tashkil qilish asoslari. Nazorat bo'yicha axborotning sir saqlanish asoslari | 8 | 4 | 4 | 6 |
| | 1-oraliq nazorat | | | | |
| | 2-oraliq nazorat | | | | |
| | Yakuniy nazorat | | | | |
| | **Jami:** | **80** | **40** | **40** | **42** |

## 2. O’QUV MATERIALLARI MAZMUNI

### 2.1. MA’RUZA MASHG’ULOTLARI

**2.1.1. Fanning predmeti va vazifalari (4 soat)**

Iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida bank faoliyatini tartibga solish va bank nazoratining tutgan o’rni va ahamiyati. Bank nazoratini amalga oshirishda tijorat banklari faoliyatini tahlil qilishning zarurligi.

Masofadan olib boriladigan nazorat. Masofadan nazoratning asosiy ob’ektlari. Nazorat va tahlil olib borishning axborot asosi. Tijorat banki balansi va uning tarkibi. Bank faoliyatini nazorat qilishda iqtisodiy tahlil usullari: koeffitsient usuli. Tahlil turlari. Banklar faoliyatini tahlil qilishda qo’llaniladigan usullar va tahlil metodikasi.

Qo’llaniladigan ta’lim texnologiyalari**:** *insert jadvali, toifali jadval, kontseptual jadval.*

[A1, A2, A10, A11, A20, A25, A30, Q31, Q32, Q37]

**2.1.2. Tijorat banklari faoliyatini tartibga solish va nazorat qilish usullari (4 soat)**

Tijorat banklari faoliyatini tartibga solish va nazorat qilishning zarurligi va ahamiyati. Tijorat banklari faoliyatini monetar instrumentlar orqali tartibga solish. Tijorat banklari faoliyatini distantsion nazorat qilish usuli: qo’llash tartibi, afzalliklari va kamchiliklari. Tijorat banklari faoliyatini nazorat qilishning inspektsion tekshirish usuli: qo’llash tartibi, afzalliklari va kamchiliklari.

Qo’llaniladigan ta’lim texnologiyalari: *klaster, toifali jadval, kontseptual jadval.*

[A1, A2, A10, A11, A20, A25, A30, Q31, Q32, Q37]

**2.1.3. Tijorat banklari faoliyatini nazorat qilish bo’yicha xalqaro Bazel standarti (6 soat).**

Xalqaro Bazel qo’mitasi faoliyatining maqsadi va vazifalari. Bazel qo’mitasining tijorat banklari faoliyatini nazorat qilish bo’yicha ishlab chiqqan printsiplari. Bazel qo’mitasining tijorat banklari kapitalini shakllantirishga nisbatan qo’yilgan talablari. Bazel qo’mitasining tijorat banklari kapitalining etarliligiga nisbatan talablari.

Qo’llaniladigan ta’lim texnologiyalari: *klaster, toifali jadval, kontseptual jadval.*

[A1, A2, A10, A11, A20, A25, A30, Q31, Q32, Q37]

**2.1.4. Tijorat banklari faoliyati ustidan amalga oshiriladigan distantsion nazorat (6 soat).**

Distantsion nazoratni amalga oshirish tartibi. Tijorat banklari faoliyatini distantsion nazorat qilish bo’yicha xorijiy davlatlar tajribasi: ijobiy jihatlari va ulardan O’zbekiston bank amaliyotida foydalanish imkoniyatlari. Tijorat banklari faoliyatini iqtisodiy normativlar orqali tartibga solish. Iqtisodiy normativlarni hisoblash metodikasi va normativ darajalari. Iqtisodiy normativlarni bajarmagan tijorat banklariga nisbatan qo’llaniladigan sanktsiyalar.

Qo’llaniladigan ta’lim texnologiyalari: *klaster, toifali jadval, kontseptual jadval.*

[A1, A2, A10, A11, A20, A25, A30, Q31, Q32, Q37]

### 2.1.5. Tijorat banklari faoliyatini inspektsion tekshirish CAMELS (4 soat)

Tijorat banklari faoliyatini inspektsion tekshirishni amalga oshirish tartibi. Tijorat banklari kredit operatsiyalarini inspektsion tekshirish. Tijorat banklari investitsiyalarini inspektsion tekshirish. Tijorat banklarini inspektsion tekshirishda «CAMEL» reyting tizimini qo’llash.

Qo’llaniladigan ta’lim texnologiyalari: *klaster, toifali jadval, kontseptual jadval.*

[A1, A2, A10, A11, A20, A25, A30, Q31, Q32, Q37]

### 2.1.6. Bank nazorati bo’yicha Bazel-II printsiplari, talablari. Bazel-II ni O’zbekiston bank amaliyotiga qo’llash (4 soat)

Bazel-II ni ishlab chiqishning zarurligi va uning bank nazorati tizimini takomillashtirishdagi ahamiyati. Bazel-II printsiplari. Bazel-II ning tijorat banklari faoliyatini nazorat qilish bo’yicha talablari. Bazel-II bo’yicha tijorat banklari aktivlarini riskka tortish tartibi. Bazel-II ni O’zbekiston Respublikasi bank amaliyotida qo’llash istiqbollari. Bazel-III ning bank kapitalini shakllantirish bo’yicha yangi talablari.

Qo’llaniladigan ta’lim texnologiyalari: *klaster, toifali jadval, kontseptual jadval.*

[A1, A2, A10, A11, A20, A25, A30, Q31, Q32, Q37]

### 2.1.7. Xalqaro amaliyotda bank faoliyatini boshqarish va nazorat qilish (4 soat)

Xalqaro amaliyotda bank faoliyatini tahlil qilish usullari va bank likvidliligi. Risk-menejment tushunchasi. Xalqaro amaliyotda aktivlar sifatini aniqlash koeffitsentlari.

Kredit riskini boshqarish asoslari. Foiz riskini boshqarish tamoyillari. Bankning rentabelligi va foydasi tahlili. Bankning daromadliligini tahlil qilish. Bank faoliyatining samaradorligi bilan bog’liq muammolarni o’rganish. Xalqaro amaliyotda bank faoliyatini boshqarish usullari.

Qo’llaniladigan ta’lim texnologiyalari: *klaster, toifali jadval, kontseptual jadval.*

[A1, A2, A10, A11, A20, A25, A30, Q31, Q32, Q37]

### 2.1.8. Tijorat banklari faoliyatini kredit reytingi asosida baholash (4 soat)

Banklar reytingi. Banklarni kreditlash reytingini aniqlash tartibi. Bank faoliyati tahlili. Investitsion reyting. Spukulyativ reyting. Reyting xizmatlarini ko’rsatish printsiplari.

Qo’llaniladigan ta’lim texnologiyalari: *klaster, toifali jadval, kontseptual jadval.*

[A1, A2, A10, A11, A20, A25, A30, Q31, Q32, Q37]

### 2.1.9. Doimiy bank nazoratini tashkil qilish asoslari (4 soat)

O’zbekistonda bank nazoratini takomillashtirish yo’nalishlari.

Bank ishida risklar. Kapital etarliligi, kredit risklarini boshqarish. Bozor risklarini va boshqa risklarni boshqarish. Ichki audit. Axborot to’plash va uni tahlil qilish. Doimiy

bank nazoratining uslublari. Masofadan turib nazorat qilish. Birlashgan holda nazorat qilish. Xorijiy auditorlardan foydalanish. Nazorat bo'yicha axborotning sir saqlanish asoslari. Nazorat bo'limi xodimlari vakolati.

Qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari: *klaster, toifali jadval, kontseptual jadval.*

[A1, A2, A10, A11, A20, A25, A30, Q31, Q32, Q37]

## 2.2. AMALIY MASHG'ULOT MAVZULARI

### 2.2.1. Fanning predmeti va vazifalari (4 soat)

Iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida bank faoliyatini tartibga solish va bank nazoratining tutgan o'rni va ahamiyati. Bank nazoratini amalga oshirishda tijorat banklari faoliyatini tahlil qilishning zarurligi. Masofadan olib boriladigan nazorat. Masofadan nazoratning asosiy ob'ektlari. Nazorat va tahlil olib borishning axborot asosi. Tijorat banki balansi va uning tarkibi. Bank faoliyatini nazorat qilishda iqtisodiy tahlil usullari: koeffitsient usuli. Tahlil turlari. Banklar faoliyatini tahlil qilishda qo'llaniladigan usullar va tahlil metodikasi.

Qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari: *aqliy hujum, baxs.*

[A1, A2, A10, A11, A20, A25, A30, Q31, Q32, Q37]

### 2.2.2. Tijorat banklari faoliyatini tartibga solish va nazorat qilish usullari (4 soat)

Tijorat banklari faoliyatini tartibga solish va nazorat qilishning zarurligini belgilovchi omillar. Tijorat banklari faoliyatini tartibga solish va nazorat qilishning milliy bank tizimi barqarorligini ta'minlashdagi ahamiyati. Tijorat banklari faoliyatini qayta moliyalash siyosati vositasida tartibga solish. Tijorat banklari faoliyatini majburiy zaxira siyosati vositasida orqali tartibga solish. Tijorat banklari faoliyatini ochiq bozor operatsiyalari vositasida tartibga solish. Tijorat banklari faoliyatini distantsion nazorat qilish usulini qo'llash tartibi. Tijorat banklari faoliyatini distantsion nazorat qilish usulining afzalliklari va kamchiliklari. Tijorat banklari faoliyatini nazorat qilishning inspektsion tekshirish usulini qo'llash tartibi. Tijorat banklari faoliyatini nazorat qilishning inspektsion tekshirish usulining afzalliklari va kamchiliklari.

Qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari: aqliy hujum, baxs, keys stadi, tijorat banklari balansining tahlili qilish.

[A1, A2, A10, A11, A20, A25, A30, Q31, Q32, Q37]

### 2.2.3. Tijorat banklari faoliyatini nazorat qilish bo'yicha xalqaro Bazel standarti (6 soat)

Xalqaro Bazel qo'mitasi faoliyatining maqsadi va vazifalari. Bazel qo'mitasining tijorat banklari faoliyatini nazorat qilish amaliyotini takomillashtirishdagi o'rni. Bazel qo'mitasining bank nazorati printsiplari. Bazel qo'mitasining tijorat banklari asosiy kapitalini shakllantirishga nisbatan qo'yilgan talablari. Bazel qo'mitasining tijorat banklari qo'shimcha kapitalining etarliligiga nisbatan talablari. Bazel standarti bo'yicha tijorat banklari aktivlarini riskka tortish tartibi.

Qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari: aqliy hujum, baxs, keys stadi, tijorat banklari balansining tahlili qilish.

[A1, A2, A10, A11, A20, A25, A30, Q31, Q32, Q37]

**2.2.4. Tijorat banklari faoliyati ustidan amalga oshiriladigan distantsion nazorat (6 soat)**

Distantsion nazoratni amalga oshirish tartibi. Tijorat banklari faoliyatini distantsion nazorat qilish bo'yicha xorijiy davlatlar tajribasi: ijobiy jihatlari va ulardan O'zbekiston bank amaliyotida foydalanish imkoniyatlari. Tijorat banklari faoliyatini iqtisodiy normativlar orqali tartibga solish. Iqtisodiy normativlarni hisoblash metodikasi va normativ darajalari. Iqtisodiy normativlarni bajarmagan tijorat banklariga nisbatan qo'llaniladigan sanktsiyalar.

Qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari: aqliy hujum, baxs, keys stadi, tijorat banklari balansining tahlili qilish.

[A1, A2, A10, A11, A20, A25, A30, Q31, Q32, Q37]

**2.2.5. Tijorat banklari faoliyatini inspektsion tekshirish CAMELS (4 soat)**

Tijorat banklari faoliyatini inspektsion tekshirishni amalga oshirish tartibi. Tijorat banklari kredit operatsiyalarini inspektsion tekshirish. Tijorat banklari investitsiyalarini inspektsion tekshirish. Tijorat banklarini inspektsion tekshirishda «CAMEL» reyting tizimini qo'llash. «CAMEL» reyting tizimi bo'yicha bank kapitali etarliligini baholash. «CAMEL» reyting tizimi bo'yicha bank aktivlari sifatini baholash. «CAMEL» reyting tizimi bo'yicha bank menejmentini baholash. «CAMEL» reyting tizimi bo'yicha bank daromadliligini baholash. «CAMEL» reyting tizimi bo'yicha bank likvidliligini baholash.

Qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari: aqliy hujum, baxs, keys stadi, tijorat banklari balansining tahlili qilish.

[A1, A2, A10, A11, A20, A25, A30, Q31, Q32, Q37]

**2.2.6. Bank nazorati bo'yicha Bazel-II printsiplari, talablari. Bazel-II ni O'zbekiston bank amaliyotiga qo'llash (4 soat)**

Bazel-II ni ishlab chiqishning zarurligi va uning bank nazorati tizimini takomillashtirishdagi ahamiyati. Bazel-II printsiplari. Bazel-II ning tijorat banklari faoliyatini nazorat qilish bo'yicha talablari. Bazel-II bo'yicha tijorat banklari aktivlarini riskka tortish tartibi. Bazel-II ni O'zbekiston Respublikasi bank amaliyotida qo'llash istiqbollari. Bazel-III ning bank kapitalini shakllantirish bo'yicha yangi talablari.

Qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari: aqliy hujum, baxs, keys stadi, tijorat banklari balansining tahlili qilish.

[A1, A2, A10, A11, A20, A25, A30, Q31, Q32, Q37]

### 2.2.7. Xalqaro amaliyotida bank faoliyatini boshqarish va nazorat qilish (4 soat)

Xalqaro amaliyotda bank faoliyatini tahlil qilish usullari va bank likvidliligi. Risk-menejment tushunchasi. Xalqaro amaliyotda aktivlar sifatini aniqlash koeffitsentlari. Kredit riskini boshqarish asoslari. Foiz riskini boshqarish tamoyillari. Bankning rentabelligi va foydasi tahlili.
Bankning daromadliligini tahlil qilish. Bank faoliyatining samaradorligi bilan bog'liq muammolarni o'rganish.

Qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari: aqliy hujum, baxs, keys stadi, tijorat banklari balansining tahlili qilish.

[A1, A2, A10, A11, A20, A25, A30, Q31, Q32, Q37]

### 2.2.8. Tijorat banklari faoliyatini kredit reytingi asosida baholash (4 soat)

Banklar faoliyatini baholashning asosiy yondashuvlari. Banklar reytingi. Banklarni kreditlash reytingini aniqlash tartibi. Reyting xizmatlarini ko'rsatish printsiplari.

Qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari: aqliy hujum, baxs, keys stadi, tijorat banklari balansining tahlili qilish.

[A1, A2, A10, A11, A20, A25, A30, Q31, Q32, Q37]

### 2.2.9. Doimiy bank nazoratini tashkil qilish asoslari (4 soat)

O'zbekistonda bank nazoratini takomillashtirish yo'nalishlari. Bank ishida risklar. Kapital etarliligi, kredit risklarini boshqarish. Bozor risklarini va boshqa risklarni boshqarish. Ichki audit. Axborot to'plash va uni tahlil qilish. Doimiy bank nazoratining uslublari. Masofadan turib nazorat qilish. Birlashgan holda nazorat qilish. Xorijiy auditorlardan foydalanish. Nazorat bo'yicha axborotning sir saqlanish asoslari. Nazorat bo'limi xodimlari vakolati.

Qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari: aqliy hujum, baxs, keys stadi, tijorat banklari balansining tahlili qilish.

[A1, A2, A10, A11, A20, A25, A30, Q31, Q32, Q37]

## 3.1. MUSTAQIL TA'LIMNI TASHKIL ETISHNING SHAKLI VA MAZMUNI

Mustaqil ta'lim magistrantlar uchun majburiy o'quv mashg'uloti hisoblanadi va rejali xususiyatga ega. Mustaqil ta'limning mavzular magistrlar uchun mustaqil o'rganishlari shart bo'lgan ma'ruzalar va amaliy mashg'ulotilardan tashkil topgan. U magistrlarning nazariy bilimlarining mustahkamlash va kengaytirishga, o'qitilayotgan va o'tilgan mavzularni kengroq va chuqurroq o'rganishga hamda dunyoqarashini yana ham kengaytirishga yordam beradi. Shuningdek, mustaqil ta'limga mo'ljallangan topshiriqlar (mavzular) ma'ruzalar mavzulari, amaliy, magistrlik dissertattsiya ishlarini yozishga tayyorgarlik ko'rishga qaratilgan. Bundan tashqari, magistrlar ayrim nazariy mavzularni o'quv adabiyotlari yordamida mustaqil

o'zlashtirishlari natijasida, referat yoki ilmiy maqolalar tayyorlashlari mumkin, hamda ilmiy amaliy konferentsiyalarda ilmiy ma'ruzalar qilishlari mumkin.

**«Tijorat banklari faoliyatini tartibga solish va nazorat qilish» fani bo'yicha mustaqil ta'limining mazmuni**

| Fan bo'yicha mustaqil ta'limning mazmuni | Mustaqil ta'limga oid bo'lim va mavzulari | Mustaqil ta'limga oid topshiriq va tavsiyalar | Bajarish muddatlari |
|---|---|---|---|
| 1. Tijorat banklari faoliyatini distantsion nazorat qilish usuli. Tijorat banklari faoliyatini inspektsion nazorat qilish usuli. | Tijorat banklari faoliyatini tartibga solish va nazorat qilish usullari | Loyiha ishi tayyorlash, taqdimot va slaydlar | Amaliy mashg'ulot davomida |
| 2. Tijorat banklari faoliyatini iqtisodiy normativlar orqali nazorat qilish. | Tijorat banklari faoliyatini tartibga solish va nazorat qilish usullari | Keys stadi.tayyorlash | Mavzu jarayonida |
| 3. CAMEL» reyting tizimini inspektsion nazorat jarayonida qo'llash. «CAMEL» reyting tizimi bo'yicha tijorat banklari kapitalining etarliligini baholash. | Tijorat banklari faoliyatini nazorat qilish bo'yicha xalqaro Bazel standarti | Loyiha ishi tayyorlash, taqdimot va slaydlar | Mavzu jarayonida |
| 4. «CAMEL» reyting tizimi bo'yicha tijorat banklari aktivlarining sifatini baholash. «CAMEL» reyting tizimi bo'yicha tijorat banklari foydasining darajasini baholash. | Tijorat banklari faoliyatini nazorat qilish bo'yicha xalqaro Bazel standarti | Loyiha ishi tayyorlash, taqdimot va slaydlar | Amaliy mashg'ulot davomida |
| 5. «CAMEL» reyting tizimi bo'yicha tijorat banklarida menejment samaradorligini baholash. «CAMEL» reyting tizimi bo'yicha tijorat banki likvidliligi va unga ta'sir qiluvchi omillarni baholash. | Tijorat banklari faoliyatini nazorat qilish bo'yicha xalqaro Bazel standarti | Loyiha ishi tayyorlash, taqdimot va slaydlar | Amaliy mashg'ulot davomida |
| 6. Xalqaro Bazel qo'mitasining bank nazorati bo'yicha printsiplari. Xalqaro Bazel qo'mitasining tijorat banklari kapitalining tarkibi bo'yicha talablari. | Tijorat banklari faoliyatini nazorat qilish bo'yicha xalqaro Bazel standarti | Loyiha ishi tayyorlash, taqdimot va slaydlar | Mavzu yakunida |
| 7. Xalqaro Bazel qo'mitasining tijorat bankalri kapitalining etarliligiga nisbatan talablari | Tijorat banklari faoliyatini nazorat qilish bo'yicha xalqaro Bazel standarti | Keys stadi.tayyorlash | Amaliy mashg'ulot davomida |
| 8. Bazel-II printsiplari. Bazel-II ning tijorat banklari faoliyatini nazorat qilish bo'yicha talablari. Bazel-II ni O'zbekiston Respublikasi bank amaliyotida qo'llash istiqbollari. | Bank nazorati bo'yicha Bazel-II printsiplari, talablari. Bazel-II ni O'zbekiston bank amaliyotiga qo'llash | Loyiha ishi tayyorlash, taqdimot va slaydlar | Amaliy mashg'ulot davomida |
| 9. Bazel-II bo'yicha muddati | Bank nazorati bo'yicha | Loyiha ishi | Mavzu |

| | | | |
|---|---|---|---|
| o'tgan kreditlarni riskka tortish tartibi. Bazel-II bo'yicha xalqaro kreditlar va ipoteka kreditlarini riskka tortish tartibi. | Bazel-II printsiplari, talablari. Bazel-II ni O'zbekiston bank amaliyotiga qo'llash | tayyorlash, taqdimot va slaydlar | yakunida |
| 10. Bazel-II bo'yicha kreditlarning garov ta'minotiga qo'yilgan talablar. Bazel-II bo'yicha operatsion riskni hisoblash va baholash tartibi. | Bank nazorati bo'yicha Bazel-II printsiplari, talablari. Bazel-II ni O'zbekiston bank amaliyotiga qo'llash | Loyiha ishi tayyorlash, taqdimot va slaydlar | Amaliy mashg'ulot davomida |
| 11. Bazel-III ning bank kapitalini shakllantirish bo'yicha yangi talablari. | Bank nazorati bo'yicha Bazel-II printsiplari, talablari. Bazel-II ni O'zbekiston bank amaliyotiga qo'llash | Keys stadi.tayyorlash | Oraliq baholashda |

## 3.2. KURS ISHLARI BO'YICHA USLUBIY KO'RSATMALAR

Fan bo'yicha kurs ishi ishchi o'quv rejasida rejalashtirilmagan.

## 4. REYTING BAHOLASh TIZIMI

### 4.1. Reyting nazorati jadvali*

| Reyting nazorati turlari | Semestr xaftalari | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | Ballar | Saralash ballari |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| | 1 | 2 | 3 | 4 | 5 | 6 | 7 | 8 | 9 | 10 | 11 | 12 | 13 | 14 | 15 | 16 | 17 | 20 | 21 | 22 | Attestatsiya | | |
| JN | 0-5 | | | 0-5 | | | 0-5 | | | 0-5 | | | 0-5 | | | 0-5 | | | 0-5 | | | 0-35 | 39 |
| ON | 0-17 | | | | | | | | | | 0-18 | | | | | | | | | | | 0-35 | |
| ∑ (JN+ON) | 0-70 | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | 0-70 | |
| YaN | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | 0-30 | 0-30 | 0 |
| Jami | 0-70 | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | 0-30 | 0-100 | 55 |

**Izoh: Semestr haftalari soni ta'lim yo'nalishi(mutaxassislik)ning o'quv rejasi va o'quv jarayoni grafigiga muvofiq belgilanadi va farqlanishi mumkin (18-19 haftalar qishki ta'til davri hisoblanadi).*

### 4.2. JN bo'yicha baholash mezonlari

JNda amaliy mashg'ulotlar bo'yicha jadvalda keltirilgan semestr haftalari kesimida har bir mashg'ulotda talabaning o'zlashtirishiga mos ravishdagi mezon asosida 0-2 (yoki har 3 (uch) hafta bo'yicha 0-6), jami 0-35 ballgacha jamlanishi belgilangan. JN bo'yicha 0-2 (0-6) ballik tizimdagi mezonlar semestr boshida talabalar e'tiboriga etkaziladi.

### 4.3. ON bo'yicha baholash mezonlari

ON ma'ruza mashg'ulotlari materiallari asosida bir semestr davomi 2 marta o'tkaziladi. ON bo'yicha talaba jami 0-35 (har bir ONda 0-17 /0-18) ballgacha jamlashi mumkin.

Fanning o'qitilgan mavzulari bo'yicha o'zlashtirish nazorati turli shakllarda o'tkazilishi mumkin. Mazkur fandan ON test sinovi shaklida o'tkazilganda testlar soni va ularga mos ravishdagi mezon 0-17 /0-18 ball kesimida kafedra tomonidan alohida belgilanadi va talabalar e'tiboriga etkaziladi.

## 4.4. JN va ON bo'yicha reyting ballarini umumlashtirish mezonlari

Mazkur fan bo'yicha ∑(JN+ON) 0-70 gacha bo'lgan reyting ballarini quyidagi mezonlarga muvofiq umumlashtirilishi belgilangan:

| Baholash mezonlari | Reyting ballari | | ∑ (JN+ON) |
|---|---|---|---|
| | JN | ON | |
| «Tijorat banklari faoliyatini tartibga solish va nazorat qilish» fani mashg'ulotlari mavzulari bo'yicha har tomonlama chuqur va mukammal bilimga ega. Nazariy va amaliy mashg'ulotlarda «Tijorat banklari faoliyatini tartibga solish va nazorat qilish» faoliyati bilan bog'liq masalalar bo'yicha xulosa va qaror qabul qila oladi, mustaqil mushohada yurita oladi, amalda qo'llay oladi, mohiyatini tushuntira oladi, aytib beradi, tasavvurga ega . | 30-35 | 30-35 | 60-70 |
| Fan mashg'ulotlari mavzulari bo'yicha to'la bilimga ega. Mashg'ulotlarda «Tijorat banklari faoliyatini tartibga solish va nazorat qilish» faoliyati bilan bog'liq masalalar bo'yicha mustaqil mushohada yurita oladi, amalda qo'llay oladi, mohiyatini tushuntira oladi, aytib beradi, tasavvurga ega. | 25-29 | 25-29 | 50-59 |
| Fan mashg'ulotlari mavzulari bo'yicha koniqarli bilimga ega. Amaliy mashg'ulotda «Tijorat banklari faoliyatini tartibga solish va nazorat qilish» faoliyati bilan bog'liq masalalar bo'yicha mohiyatini tushuntira oladi, aytib beradi, tasavvurga ega. | 20(19)-24 | 20-24 | 39-49 |
| Fan mashg'ulotlari mavzulari bo'yicha koniqarsiz bilimga ega. Amaliy mashg'ulotda «Tijorat banklari faoliyatini tartibga solish va nazorat qilish» faoliyati bilan bog'liq masalalar yuzasidan aniq tasavvurga ega emas, bilmaydi. | 0-19 | 0-19 | 0-38 |

## 4.5. YaNni baholash mezonlari

YaN og'zaki, "Yozma ish" yoki "Test sinovi" shaklida 30(0-30) ballgacha belgilangan mezonlar asosida, majmuali (Yozma ish + test sinovi) shaklida 30(6/24) ballik tizim asosida o'tkaziladi.

## 4.6. Talabalarning fanni o'zlashtirish ko'rsatkichlarini aniqlash mezonlari

Magistrning fan bo'yicha bilim saviyasi, ko'nikma va malakalarini nazorat qilish 0-100 ballik reyting tizimi asosida quyidagi mezonlarga muvofiq amalga oshiriladi:

| Talabaning fanni o'zlashtirishini nazorat qilish mezonlari | Ballar |
|---|---|
| «Tijorat banklari faoliyatini tartibga solish va nazorat qilish» fani mashg'ulotlari jami mavzulari bo'yicha har tomonlama chuqur va mukammal bilimga ega. Nazariy va amaliy mashg'ulotlarda «Tijorat banklari faoliyatini tartibga solish va nazorat qilish» faoliyati bilan bog'liq masalalar bo'yicha xulosa va qaror qabul qila oladi, mustaqil mushohada yurita oladi, amalda qo'llay oladi, mohiyatini tushuntira oladi, aytib beradi, tasavvurga ega. | 86-100 |
| Fan mashg'ulotlari jami mavzulari bo'yicha to'la bilimga ega. Mashg'ulotlarda «Tijorat banklari faoliyatini tartibga solish va nazorat qilish» faoliyati bilan bog'liq masalalar bo'yicha mustaqil mushohada yurita oladi, amalda qo'llay oladi, mohiyatini | 71-85 |

| | |
|---|---|
| tushuntira oladi, aytib beradi, tasavvurga ega. | |
| Fan mashg'ulotlari jami mavzulari bo'yicha koniqarli bilimga ega. Amaliy mashg'ulotda «Tijorat banklari faoliyatini tartibga solish va nazorat qilish» faoliyati bilan bog'liq masalalar bo'yicha mohiyatini tushuntira oladi, aytib beradi, tasavvurga ega . | 55-70 |
| Fan mashg'ulotlari jami mavzulari bo'yicha koniqarsiz bilimga ega. Amaliy mashg'ulotda «Tijorat banklari faoliyatini tartibga solish va nazorat qilish» faoliyati bilan bog'liq masalalar yuzasidan aniq tasavvurga ega emas, bilmaydi. | 0-54 |

## 5. DASTURNING INFORMATSION-KOMMUNIKATSION VA USLUBIY TA'MINOTI

Tijorat banklari faoliyatini tartibga solish va nazorat qilish fanini o'qitishda multemedia jihozlaridan foydalanib, mavzular bo'yicha ishlab chiqilgan ROWER POINT formatdagi jadvallardan, kompyuter, audio va video jihozlaridan, dioproektor va kadaskoplardan foydalaniladi. Shuningdek, ma'ruza va amaliy mashg'ulotlar davomida pul, kredit va banklarning nazariy jihatlarini tavsiflovchi tarqatma materialar, slaydlar hamda ko'rgazmali qurollardan foydalaniladi. Bundan tashqari quyidagilar ham qo'llaniladi.

-didaktik materiallar tayyorlash;

-verbal ifodalash;

-insert metodi;

-kontseptual metod

-CASE STUDY metodi va boshqalar.

### 5.1. ASOSIY ADABIYOTLAR:


1. «O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki to'g'risida»gi Qonun. Toshkent. "O'zbekiston". 1995 y.
2. «O'zbekiston Respublikasi banklar faoliyati to'g'risida»gi Qonun. Toshkent. "O'zbekiston". 1996 y.
3. O'zbekiston Respublikasining "Bank siri to'g'risida"gi Qonuni. T. "Adolat" 2003 y.
4. O'zbekiston Respublikasining "Garov to'g'risida"gi Qonuni. T. "O'zbekiston" 2008 y.
5. O'bekiston Respublikasi Prezidentining 26 noyabr 2010 yil PQ-1438 "2011-2015 yillarda respublika moliya bank tizimini yanada isloh qilish, uning barqarorligini oshirish va yuqori xalqaro reyting ko'rsatkichlariga erishishning ustuvor yo'nalishlari to'g'risida"gi Qarori 2010 yil 26 noyabr.
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Bank tizimining moliyaviy barqarorligini yanada oshirish va uning investitsiyaviy faolligini kuchaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 2010 yil 6 apreldagi 1317-sonli Qarori.
7. I. Karimov 2014 yil yuqori o'sish sur'atlari bilan rivojlanish, barcha mavjud imkoniyatlarni safarbar etish, o'zini oqlagan islohotlar strategiyasini izchil davom ettirish yili bo'ladi: Mamlakatimizni 2013 yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2014 yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor

yo’nalishlariga bag’ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma’ruza / I.A.Karimov.-Toshkent: O’zbekiston, 2014.-64 b.

8. I. Karimov Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O’zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo’llari va choralari / I.A.Karimov. – T: O’zbekiston, 2009. – 56

9. I. Karimov 2012 yil Vatanmiz taraqqiyotini yangi bosqichga ko’taradigan yil bo’ladi. – Toshkent.: “O’zbekiston”, 2012. - 36 b.

10. I. Karimov «Bank tizimi, pul muomalasi, kredit, investitsiya va moliyaviy barqarorlik to’g’risida» O’zbekiston. 2005.

11. O’zbekiston Respublikasi bank tizimi / muallif: F.M.Mullajonov [va boshq.] F.M. Mullajonovning umumiy tahriri ostida. To’ldirilgan ikkinchi nashri.T.: O‘zbekiston, 2011.-368 b.

12. O’zbekiston Respublikasi bank tizimini isloh qilish va tijorat banklari faoliyatini tartibga solishga doir normativ-huquqiy hujjatlar to’plami.-T.: “O‘zbekiston”, 2011.- 744 b.

13. Bankovskoe delo. Uchebnik . /Pod. Red. Beloglazovoy M “FiS”. 2006- 592 str.

14. Beloglazova G.N. Bankovskoe delo, 5-e izd., pererab. i dop. Uchebnik 2008. 320 st. Fi.S.

15. Bichkov V.P., avt.-sost. Bankovskoe delo: upravlenie kreditnoy organizatsiey: praktikum. Uchebnoe posobie dlya VUZov. Dashkov i K, 2008.

16. Veshkin Yu.G., Avagyan G.L. Ekonomicheskiy analiz deyatelnosti kommercheskogo banka. Magistr. 2010- 352b.

17. Jarkovskaya E. Finansoviy analiz deyatelnosti kommercheskogo banka. Uchebnik. – M.: “Omega-L”, 2011 g. – 325 str.

18. Kovalenko S.B. Bankovskoe delo: sbornik testov. Ucheb.-metod. Posobie. 2010. 160 st. Fi.S,

19. Kamishovskaya S.V. Bankovskiy finansoviy uchet i audit. Uchebnoe posobie./ S. V. Kamishovskaya, T. V. Zaxarova, N. N. Popova. - Moskva: Forum, 2012. - 288 s.

20. Lavrushin O.I. Dengi, kredit, banki. Uchebnik. M. «Knorus». 2007y.- 320 str.

21. Norqobilov S.X. Dadabaeva X.,Juraev U. Xalqaro amaliyotda bank nizorati. Darslik T: «Iqtisod-Moliya», 2007y. - 180 b.

22. Norqobilov S.X., Absalomova O. Banklarda audit. O’quv qo’llanma T: «Toshkent ma’naviyat» 2005y. - 176 b

23. Norqobilov S.X.,Fayzullaeva M.M. Nadzor i analiz bankov.Uchebnoe posobie.TMI 2007g.

24. Omonov A. Tijorat banklarining resurslarini boshqarish. Monografiya 2 – nashr. – T.: “IQTISOD – MOLIYA”, 2010 y. – 292 bet.

25. Olxova R.G. Bank i kontrol/ G.G. Olxova. - Moskva: Finansi i statistika, 1991. - 208 s.

26. Ermatov M.K. Bank nazorati va auditini takomillashtirish muammolari. Monografiya. / M.K. Ermatov. - T.: "IQTISOD-MOLIYA", 2008. - 144 s

27. Karaliev T. va boshqalar “Pul-kredit orqali muvofiqlashtirish”– o’quv qo’llanma. Toshkent.- IQTISOD-MOLIYA-2008y.

28. Karaliev T.M., Sattorov O.B., Sayfiddinov I.F. “Tijorat banklari faoliyati tahlili” TMI. 2012y.
29. Bank ishi /O’quv qo’llanma. Karaliev T. va boshqalar –T.:“IQTISOD-MOLIYA” 2010.
30. O’zbekiston Respublikasi bank tizimida buxgalteriya hisobi, hisoboti va to’lov tizimiga oid qonunchilik hujjatlari to’plami [Text].-Toshkent.: “O‘zbekiston”, 2012.- 464 - B.ts.
31. Reytingovoe Agenstvo «Axbor-Reyting» Analiticheskiy obzor bankovskogo sektora: №22, fevral 2011-2012 g.
32. Миллий банк тизимини таҳлил қилиш ва баҳолашда қўлланиладиган халқаро меъёрлар, мезонлар ва стандартлар.-Тошкент: “Молия” 2011. 128 б.

## 5.2. QO’SHIMCHA ADABIYOTLAR:

33. Abdullaev Yo.A., Qoraliev T.M., va boshqalar “Bank ishi”. O’quv qo’llanma - B.M.: T.: “Iqtisod-Moliya”, 2009. - 576 b.
34. Beloglazova G.N., Bankovskoe delo: organizatsiya deyatelnosti kommercheskogo banka. Uchebnik dlya VUZov, Yurayt 2010g
35. Lavrushin O.I. Bankovskoe delo: uchebnik. 2-e izd. Pererab. i dop. – M.: Finansi i statistika, 2009. - 594s.
36. M.Pardaev. Iqtisodiy tahlil nazariyasi. “Zarafshon” nashriyoti, Samarqand. 2001, 272 bet.
37. “Markaziy bank pul – kredit va monetar siyosatining 2014 yilga mo’ljallangan asosiy yo’nalishlari” “Bozor, pul va kredit” jurnali 2012 yil 1 – son.
38. O’zbekiston Respublikasi iqtisodiy-ijtimoiy taraqqiyotining mustaqillik yillaridagi (1990–2010 yillar) asosiy tendentsiya va ko’rsatkichlari hamda 2011–2015 yillarga mo’ljallangan prognozlari: statistik to’plam.– T.: O‘zbekiston, 2011.–140 b.
39. Internet saytlari
http//www.lex.uz - (O’zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari to’plami)
http//www.cbu.uz - (O’zbekiston Respublikasi Markaziy banki)
http//www.mf.uz-O’zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi sayti.
http//www.finance.uz - (Moliyaviy iqtisodiy tahlil portali)
http//www.ahbor.uz - (Ahbor-Reyting reyting agentligi)
http//www.stat.uz –(O’z R davlat statistika qo’mitasi sayti.)